

SHAXSGA DOIR MA'LUMOTLAR TERMINOLOGIYASI

Sultanova Mashhura Shavkat Qizi

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI MAGISTRANTI

+998500800001, sultanovamashhura10@gmail.com

ANNOTATSIYA Mazkur maqolada shaxsga doir ma'lumotlar terminologiyasining nazariy-huquqiy asoslari kompleks tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida “shaxsga doir ma'lumotlar”, “shaxsiy hayot daxlsizligi”, “identifikatsiya” hamda ma'lumotlar bilan bog'liq subyektlar kabi asosiy tushunchalarning mazmuni va o'zaro nisbatlari yoritiladi. Xalqaro huquqiy tajribadan Yevropa ittifoqining GDPR tizimi hamda milliy qonunchilik qiyosiy tahlil qilinib, terminologik yondashuvlardagi mavjud tafovutlar va ularning amaliy oqibatlarini aniqlanadi.

Tadqiqot natijasida shaxsga doir ma'lumotlar terminologiyasini tizimlashtirish, uni yagona ilmiy-huquqiy yondashuv asosida aniqlashtirish hamda zamonaviy raqamli muhit talablariga moslashtirish zarurligi asoslab beriladi.

KALIT SO'ZLAR shaxsga doir ma'lumotlar, , GDPR, , identifikator, platforma, operator, biometrik ma'lumotlar, IP-manzillar, fiziologik omil, ekotizim, geolokatsiya.

ANNOTATION This article provides a comprehensive analysis of the theoretical and legal foundations of personal data terminology. The study examines the content and correlation of key concepts such as “personal data,” “privacy,” “identification,” as well as the subjects involved in data processing. A comparative analysis of international legal experience, particularly the European Union's GDPR framework, and national legislation is conducted, identifying existing differences in terminological approaches and their practical implications.

The research substantiates the necessity of systematizing personal data terminology, clarifying it on the basis of a unified scientific and legal approach, and adapting it to the requirements of the modern digital environment.

KEYWORDS personal data, GDPR, identifier, platform, operator, biometric data, IP addresses, physiological factors, ecosystem, geolocation.

АННОТАЦИЯ В данной статье проводится комплексный анализ теоретико-правовых основ терминологии персональных данных. В рамках исследования раскрывается содержание и соотношение таких ключевых понятий, как «персональные данные», «неприкосновенность частной жизни»,

«идентификация», а также субъекты, связанные с обработкой данных. Проведен сравнительный анализ международного правового опыта, в частности системы GDPR Европейского союза, и национального законодательства, выявлены существующие различия в терминологических подходах и их практические последствия.

По результатам исследования обоснована необходимость систематизации терминологии персональных данных, ее уточнения на основе единого научно-правового подхода, а также адаптации к требованиям современной цифровой среды.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА персональные данные, GDPR, идентификатор, платформа, оператор, биометрические данные, IP-адреса, физиологические факторы, экосистема, геолокация.

KIRISH

Zamonaviy jamiyatda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida axborot inson hayotining eng muhim resurslaridan biriga aylanmoqda. Ayniqsa, shaxsga doir ma'lumotlar nafaqat ijtimoiy munosabatlarning ajralmas qismi, balki iqtisodiy va huquqiy tizimlarda muhim ahamiyat kasb etuvchi obyekt sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bilan birga, ushbu ma'lumotlarning keng miqyosda yig'ilishi, qayta ishlanishi va tarqalishi ularni himoya qilish zaruratini yanada kuchaytirmoqda.

Shaxsga doir ma'lumotlar sohasida samarali huquqiy tartibga solishni ta'minlashda terminologik aniqlik alohida o'rin tutadi. Chunki mazkur sohada qo'llaniladigan tushunchalarning turlicha talqin qilinishi nafaqat ilmiy bahs-munozaralarga, balki amaliyotda ham muayyan noaniqliklar va ziddiyatlarga olib kelishi mumkin. Xususan, "shaxsiy hayot daxlsizligi", "shaxsga doir ma'lumotlar", "identifikatsiya", "ma'lumotlar subyekti" kabi asosiy kategoriyalarning mazmunini yagona yondashuv asosida aniqlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda xalqaro huquqiy hujjatlar va milliy qonunchilikda shaxsga doir ma'lumotlarga oid terminologiya shakllanayotgan bo'lsa-da, ularning o'zaro uyg'unligi va izchilligi har doim ham ta'minlanmagan. Ayniqsa, raqamli muhitda yangi texnologiyalar - sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar (big data), biometrik identifikatsiya tizimlari - mavjud tushunchalarning mazmunini kengaytirib, ularni qayta ko'rib chiqishni talab etmoqda.

Shu bois, mazkur maqolada shaxsga doir ma'lumotlar terminologiyasining nazariy asoslari, asosiy tushunchalar tizimi hamda ularning o'zaro nisbatlari tahlil qilinadi. Asosiy maqsad - ushbu sohadagi terminologik aniqlikni ta'minlashga xizmat qiluvchi

ilmiy yondashuvlarni ishlab chiqish va ularni huquqiy amaliyot nuqtai nazaridan asoslashdan iborat.

METODLAR

Ushbu maqolani yozishda bir qator ilmiy manbalar tahlil qilindi, hamda O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga va xalqaro huquqiy hujjatlarga tayanildi. Asosiy maqsad - raqamli olamda shaxsga doir ma’lumotlarni terminologiyasini tahlil etish va uni yaxshilashga doir amaliy xulosalar ishlab chiqishdan iborat. Bugungi kunda shaxsiy ma’lumotlar raqamli muhitning ajralmas qismiga aylangan. Sun’iy intellekt va zamonaviy raqamli tizimlar tobora ko‘proq ma’lumotni saqlash va qayta ishlash imkoniga ega bo‘lmoqda va aynan shu holat kiberjinoyatchilar uchun yangi eshiklar ochib bermoqda. Shuningdek, ilmiy adabiyotlar asosida shaxsga doir ma’lumotlar tushunchasining nazariy asoslari o‘rganilib, amaliy muammolar bilan bog‘liq holatlar tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida zamonaviy kiberjinoyatlar tendensiyasi va ularning shaxsiy ma’lumotlar bilan bog‘liqligi ham alohida ko‘rib chiqildi.

MUHOKAMA

Shaxsga doir ma’lumotlar tushunchasi zamonaviy huquqiy va texnologik muhitda tobora murakkablashib bormoqda. Xalqaro huquqiy standartlar, xususan, Yevropa Ittifoqining GDPR reglamenti hamda Indoneziyaning 2022-yildagi 27-sonli qonuni ushbu tushunchaga keng va universal ta’rif beradi. Unga ko‘ra, shaxsga doir ma’lumotlar - bu identifikatsiya qilingan yoki identifikatsiya qilinishi mumkin bo‘lgan jismoniy shaxsga taalluqli har qanday axborotdir¹.

Biroq, nazariy yondashuvlarda ushbu tushuncha yagona emas. Olimlar orasida bu borada kamida uch xil yondashuv mavjud. Birinchi qarashga ko‘ra, shaxsiy hayot daxlsizligi kengroq kategoriya bo‘lib, shaxsga doir ma’lumotlar uning tarkibiy qismi hisoblanadi². Ikkinchi yondashuv esa aksincha, aynan ma’lumotlar tushunchasi kengroq deb hisoblaydi. Uchinchi yondashuv esa bu ikki tushunchani mustaqil, biroq kesishuvchi kategoriyalar sifatida talqin qiladi.

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, bu nazariy farqlar faqat ilmiy bahs emas - ular real huquqiy qarorlar qabul qilishda muhim rol o‘ynaydi. Masalan, oddiy yashash manzili ba’zi holatlarda oddiy ma’lumot sifatida qaralsa, boshqa vaziyatda u shaxsiy hayotga aralashuv sifatida baholanishi mumkin.

¹ General Data Protection Regulation. <https://gdpr-info.eu/art-1-gdpr/>

² Малеина М.Н. Право на тайну и неприкосновенность персональных данных / М.Н. Малеина // Журнал российского права. 2010. №11 // СПС «Гарант».

O‘zbekiston Respublikasining “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi qonunining 4-moddasiga muvofiq, shaxsga doir ma’lumotlar deganda muayyan jismoniy shaxsga taalluqli bo‘lgan yoki uni identifikatsiya qilish imkonini beradigan, elektr tarzda, qog‘ozda va (yoki) boshqa moddiy jismda qayd etilgan axborot tushuniladi³. Bu tushuncha ham xalqaro standartlarha javob bergan holada shaxsga doir ma’lumotlarning barcha elementlarini o‘z ichiga qamrab olgan.

Shaxsga doir ma’lumotlarning tarkibini o‘rganar ekanmiz, uning asl mohiyatini yanda chuqurroq anglash orqali, uning jinoyat huquqiy tabiatini ham to‘liq tahlil qilamiz.

Shaxsga doir ma’lumotlarni tushunishda **identifikatsiya** masalasi alohida ahamiyatga ega. To‘g‘ridan-to‘g‘ri identifikatsiya - bu shaxsni uning ismi yoki identifikatsiya raqami orqali aniqlash bo‘lsa, bilvosita identifikatsiya ancha murakkabroqdir. Bugungi kunda oddiy IP-manzil, geolokatsiya yoki hatto onlayn xulq-atvor orqali ham shaxsni aniqlash mumkin. Bu esa raqamli muhitda anonimlik tushunchasining nisbiy ekanligini ko‘rsatadi.

Identifikatsiya turlari:

1. To‘g‘ridan-to‘g‘ri identifikatsiya: Shaxsning ismi-sharifi yoki yagona identifikatsiya raqami orqali aniqlanishi.
2. Bilvosita identifikatsiya: Joylashuv ma’lumotlari, onlayn identifikatorlar (IP-manzillar), shuningdek, shaxsning fiziologik, genetik, ruhiy, iqtisodiy, madaniy yoki ijtimoiy o‘ziga xosligini belgilovchi omillar yig‘indisi orqali aniqlanishi⁴.

Ma’lumotlarning tasnifi ham muhim masalalardan biridir. Umumiy ma’lumotlar kundalik hayotda keng tarqalgan bo‘lsa-da, sezgir ma’lumotlar oshkor bo‘lganda jiddiy ijtimoiy va huquqiy oqibatlar olib kelishi mumkin. Ayniqsa, biometrik va genetik ma’lumotlar bilan bog‘liq xavflar tobora ortib bormoqda. Masalan, barmoq izi yoki yuzni tanish texnologiyalari qulaylik yaratgani bilan birga, noto‘g‘ri qo‘llanganda shaxs ustidan to‘liq nazorat vositasiga aylanishi mumkin.

Ushbu ma’lumotlarning oshkor bo‘lishi shaxs uchun jiddiy xavf-xatarlar yoki kamsitishlarni (discrimination) keltirib chiqarishi mumkin. Shuning uchun ularni qayta ishlashga qat’iy cheklovlar qo‘yilgan⁵:

- **Salomatlikka oid ma’lumotlar:** Kasallik tarixi, tibbiy ko‘rik natijalari va nogironlik holati.

³³ O‘zbekiston Respublikasining “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. <https://lex.uz/docs/4396419>

⁴ Article 29 Data Protection Working Party, Opinion 4/2007 on the concept of personal data, WP 136, 20 June 2007, p. 15.

⁵ M.Park, S. Chai, The Value of Personal Information: An Exploratory Study for Types of Personal Information and Its Value, Asia Pacific Journal of Information Systems Vol. 28 No. 3 – 2018. – B. 155

- **Biometrik ma'lumotlar:** Shaxsning o'ziga xos fiziologik va biologik xususiyatlarini tavsiflovchi (barmoq izlari, ko'z qobig'i skaneri) ma'lumotlar.
- **Genetik ma'lumotlar:** Shaxsning irsiy xususiyatlari haqidagi tahlillar.
- **Sudlanganlikka oid ma'lumotlar:** Jinoiy javobgarlik, ayblovlar va jazo choralari haqidagi axborotlar.
- **Siyosiy va mafkuraviy qarashlar:** Siyosiy partiyalarga a'zolik, kasaba uyushmalari faoliyati va falsafiy e'tiqodlar

Ma'lumotlar bilan ishlash jarayonida subyektlar o'rtasidagi rol taqsimoti ham katta ahamiyatga ega. Ma'lumotlar subyekti, operator, mulkdor va uchinchi tomon tushunchalarini aniq ajratmaslik javobgarlikni belgilashda jiddiy muammolarni keltirib chiqaradi⁶. Ayniqsa, global platformalar faoliyati sharoitida "kim javobgar?" degan savol tobora murakkablashmoqda.

Shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash jarayoni esa ko'pincha foydalanuvchi sezmaganda amalga oshiriladi. Oddiy ro'yxatdan o'tish jarayonida berilgan ma'lumotlar keyinchalik reklama, tahlil yoki hatto siyosiy manipulyatsiya vositasiga aylanishi mumkin. Bu esa "axborotni o'z-o'zini belgilash" huquqining amalda qanchalik ta'minlanayotgani haqida savol tug'diradi.

Shu nuqtai nazardan, shaxsiy hayot daxlsizligi va shaxsga doir ma'lumotlar o'rtasidagi bog'liqlik alohida e'tiborga loyiq. Daxlsizlik huquqi insonning shaxsiy hududini himoya qilsa, ma'lumotlar ustidan nazorat qilish huquqi uning raqamli "soyasi"ni boshqarish imkonini beradi.

Zamonaviy kiberjinoyatlar, xususan, shaxsiyat o'g'irligi, doksing va maqsadsiz foydalanish holatlari ushbu sohada asosiy xavflardan hisoblanadi. Bunday jinoyatlar ko'pincha "oq yoqalilar jinoyati" sifatida baholanadi, chunki ular zo'raonliksiz, biroq katta zarar keltiruvchi xarakterga ega.

Natijada, shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish faqat texnik yoki huquqiy masala emas, balki ijtimoiy, axloqiy va hatto psixologik muammoga aylanmoqda. Shu sababli, bu sohada kompleks yondashuv zarur.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, shaxsga doir ma'lumotlar terminologiyasi zamonaviy raqamli huquq tizimining asosiy kategoriyalaridan biri bo'lib, uning aniq va yagona talqinda qo'llanilishi huquqiy tartibga solish samaradorligini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ushbu sohada mavjud terminologik

⁶ L.Strahilevitz. Toward a positive theory of privacy law //Harvard Law Review. – 2013. – T. 126. – №. 7. – S. 20102042.<https://chicagounbound.uchicago.edu/cgi/viewcontent.cgi?article=1588&context=law>

yondashuvlar xilma-xilligi — xususan, “shaxsiy hayot daxlsizligi” va “shaxsga doir ma’lumotlar” tushunchalarining o‘zaro nisbatiga doir turli ilmiy qarashlar — amaliyotda muayyan noaniqliklarni yuzaga keltirmoqda.

Shuningdek, identifikatsiya mezonlari (to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita), ma’lumotlar tasnifi (umumiy va sezgir toifalar) hamda ma’lumotlar bilan ishlovchi subyektlar (subyekt, operator, mulkdor va boshqalar) o‘rtasidagi terminologik aniqlik yetarli darajada shakllanmaganligi javobgarlikni belgilash va huquqni qo‘llash jarayonida murakkabliklarni keltirib chiqaradi.

Xalqaro tajriba, xususan, ilg‘or huquqiy tizimlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, shaxsga doir ma’lumotlar terminologiyasini standartlashtirish, uni aniq huquqiy mezonlar asosida belgilash hamda milliy qonunchilikka uyg‘unlashtirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Ayniqsa, raqamli muhitda bilvosita identifikatsiya imkoniyatlarining kengayib borayotgani mavjud terminologik yondashuvlarni qayta ko‘rib chiqishni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, shaxsga doir ma’lumotlar terminologiyasini tizimlashtirish, uning asosiy kategoriyalarini yagona ilmiy-huquqiy yondashuv asosida aniqlashtirish hamda amaliyotga joriy etish ushbu sohada samarali huquqiy tartibotni ta’minlashning zarur sharti hisoblanadi.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasining “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonuni.
2. M.Park, S. Chai, The Value of Personal Information: An Exploratory Study for Types of Personal Information and Its Value, Asia Pacific Journal of Information Systems Vol. 28 No. 3 – 2018. – B. 155
3. ¹ L.Strahilevitz. Toward a positive theory of privacy law //Harvard Law Review. – 2013. – T. 126. – №. 7. – S. 20102042.<https://chicagounbound.uchicago.edu/cgi/viewcontent.cgi?article=1588&context=law>
4. Article 29 Data Protection Working Party, Opinion 4/2007 on the concept of personal data, WP 136, 20 June 2007, p. 15.
5. General Data Protection Regulation. <https://gdpr-info.eu/art-1-gdpr/>
6. Малеина М.Н. Право на тайну и неприкосновенность персональных данных / М.Н. Малеина // Журнал российского права. 2010. №11 // СПС «Гарант».
7. Защита персональных данных в уголовном судопроизводстве Smolkova iraida vyacheslavovna baikal state university научная статья удк 343.1 doi 10.33184/pravgos-2025.1.15